



**Ta'lim muassasalarida bilim berish usullari va pedagogika  
texnologiya uyg'unligining ilmiy asoslari**

**Toshniyozova Xurshidabonu Olimjon qizi**

Renessans ta'lim universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida bilim berish usullari va pedagogik texnologiyalarning o'zaro uyg'unligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. An'anaviy va zamonaviy ta'lim metodlari, interfaol o'qitish usullari, shuningdek, pedagogik texnologiyalarning mohiyati va ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bilim berish usullari va innovatsion texnologiyalarning integratsiyasi, ularning o'quv jarayonida ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiyalar, ta'lim metodlari, interfaol o'qitish, innovatsion yondashuv, didaktik integratsiya, kompetensiyaviy ta'lim, epistemologik asoslar, metodologik yondashuv

**Аннотация:** В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется взаимосвязь методов обучения и педагогических технологий в образовательных учреждениях. Рассматриваются традиционные и современные методы обучения, интерактивные методы преподавания, а также сущность педагогических технологий и их эффективность в образовательном процессе. Кроме того, освещается интеграция методов обучения и инновационных технологий, их значение в повышении качества образования в учебном процессе.



**Ключевые слова:** Педагогические технологии, методы обучения, интерактивное обучение, инновационный подход, дидактическая интеграция, компетентностное образование, эпистемологические основы, методологический подход

**Abstract:** This article provides a scientific and theoretical analysis of the interrelationship between teaching methods and pedagogical technologies in educational institutions. It examines traditional and modern educational approaches, interactive teaching techniques, as well as the essence of pedagogical technologies and their effectiveness in the educational process. Furthermore, the article explores the integration of teaching methods and innovative technologies, highlighting their importance in enhancing the quality of education within the learning process.

**Keywords:** Pedagogical technologies, teaching methods, interactive learning, innovative approach, didactic integration, competency-based education, epistemological foundations, methodological approach

**KIRISH.** Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda yurtboshimiz tomonidan belgilab berilgan bir qancha strategik masalalarga asosan ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularni intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi bir qancha dolzarb vazifalar belgilab berilgan.



Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirishda barcha fan sohlarini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi Qonuni”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilab berilgan davlat ta'lim standartlari asosida to'g'ri ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqqan holda ta'lim berish jarayonida, aniq samara bera oladigan va avvalbatta, kelajak avlod bundan manfaat ko'radigan metodlarni ta'lim berish jarayonida ishlatish eng dolzarb vazifa sifatida oldinga chiqadi.

**Tadqiqot va analiz natijasi.** Bilim berish jarayonida o'zi qanday metodlar mavjud degan savol tug'iladigan bo'lsa, demak bular: An'anaviy metodlar: reproduktiv, tushuntirish-illyustrativ yondashuvlarva zamaviy hisoblanib, har bir alohida o'rganiladigan soha hisoblanadi.

Reproduktiv - asosan o'qituvchining yetakchiligiga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning bilimlarni eslab qolish va qayta ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Umuman olganda bu jarayon ayni zamonga kelib, o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlariga noto'g'ri ta'siri natijasida, jamiyatda oz fikriga ega bo'lgan insonlar qatlami shunchaki kamayib boradi xolos. Albatta, bu metod qaysidur jihatdan, balki, tarix yoki huquq sohasi vakillari uchun qo'l kelar, ammo haqiqiy pedagog bo'lishni istagan insonlar bu metoddan tiyilganlari ma'qulroq.

*Tushuntirish-illyustrativ metod* – o'qituvchi bilimlarni bayon qiladi, ularni diagramma, grafik, xarita yoki eksperimentlar orqali tushuntiradi (Bruner, 1966). u metod o'qitish jarayonida og'zaki tushuntirish va vizual vositalarni birgalikda qo'llashga asoslangan. O'quvchilarning bilimni tezroq tushunishlari uchun jadvallar, diagrammalar, maketlar, tajribalar, videolar va boshqa ko'rgazmali vositalar ishlatiladi. O'qituvchi o'z fikrlarini nafaqat so'z bilan, balki ko'rgazmali vositalar orqali tushuntiradi. O'quvchilarning tasavvur qilish, qiyoslash va tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bilimni eslab qolish jarayonini osonlashtiradi. Lekin ayni zamonda, bu metodda o'quvchilar asosan tinglovchi va kuzatuvchi rolda bo'ladilar. Ular



o'qituvchining tushuntirishlarini qabul qilishadi, lekin mustaqil izlanish va muhokama qilish imkoniyatlari kamroq bo'lishi mumkin. Samarali tushuntirish uchun o'qituvchi oldindan turli vizual materiallarni tayyorlashi kerak bo'ladi. Bu esa darsni tayyorlashda ko'proq vaqt va texnik resurs talab qiladi. Ayni shu kabi muammolar sababli bu metod ham passiv metod hisoblanadi.

Xo'sh, bu masalani yechimi sifatida qaysi metodlar muqobil sifatida ko'riladi degan savolga javob Innovatsion ta'lim metodlarni keltirish mumkin. Bular sirasiga - *Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning – PBL)*, *Loyihaviy ta'lim (Project-Based Learning – PJBL)*, *Interfaol ta'lim (Interactive Learning)* kabilarni krltirish mumkin.

*Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning – PBL)* - konstruktivistik pedagogika printsiplariga asoslangan metod, Bu metodda o'quvchilar aniq hayotiy muammolar bilan ishlaydi va ularni mustaqil ravishda hal qilish orqali bilimlarni o'zlashtiradi. O'quvchilarga oldindan tayyor bilim berilmaydi, balki muammo yoki holat taqdim etiladi. Muammoni yechish jarayonida tadqiqot, muloqot va tahlil qilish qobiliyatlari shakllanadi. Bu an'anaviy metoddan ustun jihati hisoblanib, amaliy sohaga ko'proq e'tibor qaratadi.

*Loyihaviy ta'lim (Project-Based Learning – PJBL)* - loyihaviy ta'lim o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini real loyihalar orqali shakllantirishga asoslangan. O'quvchilar jamoa bo'lib yoki individual tarzda loyihalar ishlab chiqadilar. Haqiqiy muammolar va vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Aynan bizga umuman jamiyatni umum ma'nosidan kelib chiqqan holda, jamiyatga marginal emas, balki u bilan uyg'un yashay oladigan shaxsni shakllantira oladigan kuchga ega bo'lgan metodlardan eng samaralisi hisoblanadi.

*Interfaol ta'lim (Interactive Learning)* - Ushbu metod o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Muloqotga asoslangan mashg'ulotlar (munozara, debat, rolly o'yinlar) qo'llaniladi. O'quvchilarning



hamkorlikda ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ta'lim jarayonida multimediya texnologiyalari (virtual laboratoriyalar, interfaol taxtalar)dan foydalaniladi. Bu siyosatshunoslik yoki xalqaro munosabatlar sohasida ta'lim oluvchi har bir talabaga kerak bo'ladigan metod hisoblanadi. Ular kelajakda aynan, davlat vakili, partiya yetakchisi sifatida o'zlarining aniq fikrlariga ega bo'lgan holda, qarshi tomon fikrlariga munosib javob qaytarishlari talab qilinadi.

**XULOSA.** Jamiyatda yetuk shaxlarni tarbiyalashdek vazifa turgan paytda, pedagoglar yelkasidagi og'ir yuklardan biri qanday metodni qo'llash orqali ma'lum kasb egasi bo'luvchi shaxsga mos tushadigan yo'lni tanlashdan iborat. Yuqorida ikki xil an'anaviy va innovatsion metodlarni keltirgan holda, ba'zi salbiy va shu o'rinda ijobiy tomonlari muhokama qilindi. An'anaviy va innovatsion metodlarning har biri o'ziga xos afzalliklarga ega. An'anaviy metodlar tizimli yondashuv va asosiy bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilsa, innovatsion metodlar esa o'quvchilarning faolligini oshirib, ularning mantiqiy fikrlashi va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli, ushbu ikki metodni uyg'unlashtirib qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. An'anaviy metodlar asosiy tushunchalarni yetkazish va tartib-intizomni shakllantirishga yordam bersa, innovatsion metodlar esa ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi. Shunday qilib, ularning uyg'unligi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qodirova, M. (2020). Psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.
2. INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TA'LIM TARAQQIYOTINING ASOSIY KUCHI VA TUTGAN O'RNI G.D.Tosheva B.Toirov
3. O'.Yo'ldoshev. Pedagogika sxema va jadvallarda. – T.: «Fan va texnologiya», 2015, 152 bet.